**Abstract:** In this article, increasing the competitiveness of the labor force in the regional labor market is carried out by constantly improving the quality indicators of the labor force, which is considered as the main factor of the labor market. The experience of developed countries of the world, norms regulating the labor market of the region, social significance, political stability, promotion of civil harmony and law and order, high quality of human capital and ensuring high labor productivity are analyzed.

**Key words:** labor market, region, labor force, human capital, employment, social, country, population, economy, labor.

**Аннотация:** В данной статье повышение конкурентоспособности рабочей силы на рынке труда региона осуществляется путем постоянного улучшения качественных показателей рабочей силы, которая рассматривается как главный фактор рынка труда. Анализируется опыт развитых стран мира, нормы, регулирующие рынок труда региона, социальная значимость, политическая стабильность, продвижение гражданского согласия и правопорядка, высокое качество человеческого капитала и обеспечение высокой производительности труда.

**Ключевые слова:** рынок труда, регион, рабочая сила, человеческий капитал, занятость, социальная, страна, население, экономика, труд.



## KIRISH

Mintaqa mehnat bozorida ishchi kuchi bahosi, uning mehnat faoliyati turlari, yollanib ishlash sharoitlari, ish haqining miqdori va darajasi, mehnat sharoitlari, ma'lumot olish imkoniyatlari, kasbiy yuksalish hamda eng muhimi bandlik kafolatlari o'z aksini topadi. Umumiy tarzda mehnat bozori deyilganda, bir tomondan ishlab chiqarish subyektlari(egalari) bilan ikkinchi tomondan yollanib ishlovchilar o'rtasidagi o'zaro aloqa tushuniladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

I.Yu.Zamaryanovani fikricha, ish o'rinlari va ishchi kuchi bozori bir-biriga nisbatan mustaqil holda vujudga keladi va rivojlanadi. «Ishchi kuchi bozori, deb yozadi u, harakatchan tizim sifatida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni belgilashga sezilarli ta'sir o'tkazadi»

Nikiforov A.A – ishchi kuchi bozori, ishga yaroqli fuqarolarning o'zini mehnatga qobillikni amalda tatbiq eta oladigan mehnat sohalariga ega bo'lish istaklari majmuini mahsuli sifatida shakllanadi.

Muminova M. – ishsizlik ish haqini favqulodda yuqori bo'lishini natijasi, **ikkinchisi**: ishchi kuchiga talabni pasayishi va nihoyat **uchinchi** yo'nalish bo'yicha ishsizlik mehnat bozorini egiluvchanlik xususiyatiga to'sqinlik qilib, ishchi kuchiga talab va taklifni o'zaro muvofiq holda yuzaga kelishiga xalaqit beradi, – degan nuqtayi nazar ilgari suriladi.

Satvoldiyev A.A. – O'zbekistondagi rasmiy mehnat bozorining muhim xususiyatlaridan biri, unda yoshlarning salmog'ini kattaligidadir. Shuningdek, mehnat bozorining kattagina qismini asosan, kasbiy ma'lumoti yo'q yoki ma'lumoti yuqori bo'lmagan kishilar tashkil etadi. Bu holat O'zbekistonda bandlik tizimida professional-kasbiy malakaga ega bo'lgan ishchi-xodimlarga nisbatan ehtiyojni to'la qondirilmaganligini ham anglatadi.

Shukurov B. – Kimdir mardikor bozorlarning barchasini ro'yxatga olib rasmiylashtirish kerak desa, yana kimdir umuman taqiqlash kerak, – degan fikrlarni bildirmoqda. Boshqa bировlar esa, agar ishsiz yurganlar ish bilan ta'minlansa, bunday bozorlar o'z-o'zidan tugab ketadi, – degan fikrni ilgari suradilar. Holbuki, ishsizlik barcha rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, unga tabiiy jarayon sifatida qarash kerak. Rivojlangan Yevropa mamlakatlaridan biri Germaniyada ham 5 millionga yaqin ishsiz bor. AQSH aholisining 12,5 foizi aynan ishsizlik tufayli qashshoq yashamoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mintaqa mehnat bozori ishchi kuchiga talab va taklifni boshqarish jarayonida kuzatish, monografik tadqiq qilish, mantiqiy va taqqolama tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, vazirliklar va idoralardan olingan ikkilamchi ma'lumotlar, hamda statistik hisobot va hujjatlar tahliliga asoslanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqa mehnat bozorini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning eng maqbul, dunyo tajribasida sinalgan yo'nalishi ishchi kuchiga talab va taklifni o'zaro mutanosibligini ta'minlashdan iborat.

Bu o'zaro ta'sir va aloqadorlik asosida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning hajmi va tarkibi shakllanadi. Ana shu aloqadorlik asosida mehnat bozorini tashkiliy-tuzilmaviy komponentlari tarkib topadi. Ular quyidagilardan iborat:

- mehnatga talab;
- mehnat taklifi;
- ishchi kuchi bahosi;
- raqobat;

**Mehnatga talab** – ishchi kuchiga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni umumiy hajmini o'zida ifodalovchi, uning mehnat bozoriga jalb etilgan qismiga bo'lgan talabni anglatadi.

**Mehnat taklifi** – ishchi kuchining umumiy sonini (jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbiy malakasi va hokazo) tavsiflovchi uning miqdori va tarkibiy birligini anglatadi.

**Ishchi kuchi bahosi** – uning takror ishlab chiqarishga sarf etilgan moddiy-nomoddiy ijtimoiy harajatlar va hokazolarni o'zida ifodalaydi.

Biz tadqiqot jarayonida mehnat bozorini tashkil etuvchi ana shu komponentlarni alohida tadqiqot obyekti sifatida qarab chiqdik.



**Mintaqa mehnat bozori** – mamlakat makroiqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan sotsial-iqtisodiy kategoriya bo'lib, murakkab va harakatchan xodisa sifatida doimo o'zgarib hamda rivojlanib turuvchi iqtisodiy tizimdagi o'ziga xos aloqalar zanjiridir. Yuqorida qayd etilganidek, mehnat bozori mexanizmining asosiy elementlarini talab, taklif, qiymat va raqobat tashkil etadi. Mintaqa mehnat bozorini harakatga keltiruvchi qurilma esa, ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida bo'sh ish o'rinlariga ega bo'lishga intilgan ishchilar bilan yollanib mehnat qilishga jalb etilgan ishchi kuchlari o'rtasidagi raqobatdir. Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning o'zaro aloqadorligi mehnat bozori konyukturasi orqali tavsiflanadi.

Mehnat bozori konyukturasi ishchi kuchi bohosiga bevosita ta'sir etadi va o'z navbatida bu holat mavjud bozor bahosi bilan bog'liq holda tebranib turadi. Har bir ishchi kuchi egasi o'z tovarini iloji boricha yuqori narxda sotishga harakat qiladi. Mehnat bozorida raqobat ishchi kuchi egasidan o'z tovarini sifatini oshirishni talab etadi, ya'ni ishchi kuchi egasi foyda ko'rish maqsadida o'z malakasini oshiradi va o'zi tanlangan sohasida bilimlarini chuqurlashtirishga harakat qiladi. Demak, raqobat ishchi kuchining mehnat unumdorligini oshiruvchi omil hisoblanadi. Raqobat mehnat bozorida sifatni yaxshilaydi.

Mintaqa mehnat bozorida ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirish, ishchi kuchining sifat ko'rsatkichlarini to'xtovsiz oshirib borish esa, mehnat bozorining asosiy omili hisoblanadi. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatadiki, mintaqa mehnat bozorini tartibga soladigan me'yorlar ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ular siyosiy barqarorlik, fuqarolar totuvligi va huquq-targ'iboti, inson kapitalining yuksak sifatligi va yuqori mehnat unumdorligini ta'minlaydi.

Binobarin, mintaqa mehnat bozori nafaqat ishchi kuchiga talab va taklifni boshqaruvchi vosita balki, u jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishga ham bevosita ta'sir etuvchi iqtisodiy omil hamdir.

Mintaqa mehnat bozorini oqilona shakllantirishning asosiy va hal qiluvchi sharti ham mehnat resurslari bilan ish joylari o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlashdir. Shu o'rinda quyidagi iqtisodiy tushunchalarga oydinlik kiritib olish zarur. Chunki ishchi kuchiga talab va taklifni yuzaga kelishi, uning jamiyatdagi mehnat resurslari bilan bevosita bog'liqligi bu resurslarni oqilona joylashtirish masalalarini hal etishda uning nazariy yechimini topish zarurdir.

Ma'lumki, iqtisodiy adabiyotlarda ko'pincha "mehnat bozori", "ishchi kuchi bozori" va "mehnat zahiralari bozori" tushunchalari ko'p ishlatiladi. Aslida ular bir-biriga o'xshash emas. **Fikrimizcha, ishchi kuchi deb mehnat jarayonida inson foydalaniladigan jismoniy va aqliy qobiliyatlarining majmuasidir. Mehnat resurslari deb, mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi kiradi.** Aytilganlardan ko'rinib turibdiki, ularni mazmunan biri ikkinchisini anglichsada, mohiyatan bir-biriga o'xshash emas, balki bir-biriga uzviy bog'liqlikdadir, xolos. Mehnat, mehnatga bo'lgan qobiliyatsiz amalga oshmaydi, mehnat resurslari iqtisodiyotda band aholini va band bo'lmagan aholini o'z ichiga oladi. Ba'zi bir adabiyotlarda hattoki ishchi kuchi bozori, ish o'rinlari bozori tushunchalari mehnat bozori tarkibiga kiritilib ularni har biriga ta'rif ham berilgan.

Unga ko'ra ishchi kuchi bozori, ishga yaroqli fuqarolarning o'zini mehnatga qobillikni amalda tatbiq eta oladigan mehnat sohalariga ega bo'lish istaklari majmuini mahsuli sifatida shakllanadi<sup>1</sup>.

Ishchi o'rinlari bozori esa korxonalar va tashkilotlar (ish beruvchilar)ni ishchi kuchiga bo'lgan umumiy ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Rus olimasi I.Yu.Zamaryanovani fikricha, ish o'rinlari va ishchi kuchi bozori bir-biriga nisbatan mustaqil holda vujudga keladi va rivojlanadi. "Ishchi kuchi bozori deb yozadi u, harakatchan tizim sifatida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni belgilashga sezilarli ta'sir o'tkazadi"<sup>2</sup>.

Bizningcha, **ishchi kuchi bozori** - o'zining sotsial-iqtisodiy tabiatiga ko'ra eng avvalo aholini ish o'rinlariga bo'lgan umumiy ehtiyojini o'zida mujassamlashtiradi. Shunga ko'ra "ishchi kuchi bozori" tushunchasidan ishchilarning bandligi va band emasligi bo'yicha aloqalarni tavsiflashda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Respublikaning mintaqa mehnat bozorida konyuktura hamda bandlikning hozirgi holati ishchi kuchiga talab va uning taklifi nafaqat, miqdori bilan balki, tarkiban mos kelishi uchun bir qator tashkiliy-iqtisodiy tadbirlar tizimini o'z ichiga olgan davlatning bandlik siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish zarurdir.

Jumladan:

- mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning miqdor hamda sifat jihatlarini bo'yicha mutanosibligiga erishish;

1 Никифоров А.А. Рынок труда: занятость и безработица. Москва «Международное отношения», 1991. – С.9.

2 О'sha kitob. – B.10.



- qishloq joylarida agrar tarmoqdan tashqari boshqa sohalarda mehnat taklifi shakllanib borishini tezlashtirish va shu asosida qishloq aholisi uchun qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish;
- mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talabdan kelib chiqib, kadrlar hamda mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish zarurdir.

Bu o'z navbatida mehnat bozori istiqbollarini Respublikada keyingi 8-10 yil ichida davlat sektorining deyarli 77 foizi mulkchilikning boshqa shakllariga o'tkazildi.

Shuningdek, sanoat korxonalarining 4-6 foizini ixtisoslashtirish respublika miqyosida 80-85 ming kishini ishsiz qolishiga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitda zahiradagi ishsizlar hisobiga mehnat resurslarini sonini o'sishi kuzatiladi. Kelgusida O'zbekistondagi mehnat bozori hududiy migratsiya va demografik vaziyatni o'zgarishi hisobiga ham kengayib borishi mumkin. Mehnat bozorining butun tizimini ishga tushirishda muhim ta'sir ko'rsatadigan jamiyat dinamikasi va an'alarini aniqlashda, ayniqsa, demografik omillarni har tomonlama hisobga olish muhimdir.

Ammo, mehnat bozoriga katta ta'sir o'tkazadigan ishchi kuchiga bo'lgan taklifni aniqlashni to'g'ri metodologik asosi, bizning fikrimizcha, mehnat resurslaridagi o'sish bilangina emas balki, ishga yaroqli aholining real oqimi uni sifat ko'rsatkichi bilan bevosita bog'liqdir. Yuqorida qayd etilganidek ishsizlikni kelib chiqishi sabablari va mehnat bozorining amal qilish mexanizmi to'g'risida turli xildagi nazariyalar mavjud. Bu nazariyalarni shartli ravishda uchta yo'nalishga ajratish mumkin.

**Birinchisi** – ishsizlik ish haqini favqulodda yuqori bo'lishini natijasi, **ikkinchisi** – ishchi kuchiga talabni pasayishi va nihoyat **uchinchi** yo'nalish bo'yicha ishsizlik mehnat bozorini egiluvchanlik xususiyatiga to'sqinlik qilib, ishchi kuchiga talab va taklifni o'zaro muvofiq xolda yuzaga kelishiga xalaqit beradi, – degan nuqtayi-nazar ilgari suriladi<sup>3</sup>.

Ishsizlik bilan bog'liq sabablarni izohlashga urinilgan bu barcha yo'nalishni mavjudligini o'zi, mehnat bozorini amal qilishda salbiy holatlar bartaraf etilmaganligini anglatadi.

Ish izlovchilar orasida ish joyini tez-tez o'zgartiradigan va ular orasida yuqori malakaga ega bo'lganlarning ko'pchilikni tashkil etishi, mehnat bozorida vaziyatni keskinlashtiradigan holatlardan biridir. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bunday vaziyat, asosan, ichki mehnat bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xodimlar qo'nimsizligi darajasini yuqoriligini in'ikosi sifatida yuzaga keladi. Ish beruvchilar uchun o'z hisobidan kadr tayyorlashdan ko'ra, mehnat idoralari orqali arzon ishchi kuchiga ega bo'lish iqtisodiy jihatdan manfaatliroq bo'lgani uchun ham mehnat birjalari yordamida ishga joylashganlar orasida yuqori malakaga ega bo'lgan shaxslarning salmog'ini ortib borayotganlik holatlari kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, mehnat bozori infratuzilmasi elementlarining, jumladan ijtimoiy hamkorlik mexanizmining yetarli darajada rivojlanmaganligi, mehnat bozorida umumiy jarayonlarga jamiyatning mos ravishda tezkorlik bilan moslasha olmasligi, uning oldiga yalpi ishsizlik muammosini ko'ndalang qo'ymoqda. Mehnat bozorining aniq bo'g'inlarida taklif so'rovlarni balanslash va disbalans amalga oshirilayotganda bozor qurilishida samaradorlik ko'rsatkichi muhimdir.

Mintaqa mehnat bozorida muammolardan tashqari u bir qator ijobiy xususiyatlarga egadir:

- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, ishchi va xizmatchilarni mehnat sharoitlarini yaxshilashga keng imkoniyatlar yaratish kabilardan iborat.

Mehnat bozori, insonga nafaqat ish joyida balki turmush tarzida ham, iqtisodiy faoliyatda ham erkinlik beradi, kishilarda u yoki bu ishlab chiqarishda ishtirok etish hohishini inobatga oladi. Bu holat, mehnat bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, talab va taklifni boshqarish funksiyasini takomillashtirishga ham olib keladi.

Zamonaviy mehnat bozori, ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni yo'lga qo'yish uchun, kishilarga qulay ish o'rinlari (mehnatga haq to'lash tartibidan tortib, ijtimoiy status (maqomga)ga asoslangan hayotiy shart-sharoitlarni yaratishga qadar)ni yaratish, ijtimoiy, siyosiy, texnikaviy, investitsion hamda moliyaviy kredit sohasida o'zaro bir-biriga bog'liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Buning uchun mamlakatda yashirin ishsizlik darajasining ancha yuqori ekanligini ko'zda tutgan xolda iqtisodiyotni turli innovatsion loyihalarni amalga oshirishda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda va kengaytirishda ishlab chiqarish sohalaridan bo'shatilayotgan ortiqcha ishchi kuchidan ham, ishlab chiqarishga yangi kelib qo'shilayotgan ishchi kuchidan ham samarali foydalanish hisobga olinishi lozim.

<sup>3</sup> Муминова М. "Рынок труда в эканомике переходного периода и совершенствование механизма его функционирования". Автореферат диссерт. к.э.н. Тошкент 1999 год. стр. – 16.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2002–2022-yillar uchun mehnat resurslari balansi<sup>4</sup>

| No                   | Ko'rsatkichlar                                                                                                         | 2002           | 2005           | 2010           | 2015           | 2022           | 2022-y. da 2002-y. ga nisbatan o'sish, % |
|----------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|------------------------------------------|
| I                    | <b>Iqtisodiy faol aholi</b>                                                                                            | <b>10394.8</b> | <b>10637.2</b> | <b>12256.6</b> | <b>13767.7</b> | <b>15038,9</b> | <b>142,3</b>                             |
| 1                    | Bandlar jami                                                                                                           | 10001.6        | 10317.0        | 11628.4        | 13058.3        | 13239,6        | 132,4                                    |
| <b>Shu jumladan:</b> |                                                                                                                        |                |                |                |                |                |                                          |
| 1.1                  | Iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar                                                                               | 7069.2         | 6678.7         | 7275.2         | 7849.2         | 5719,5         | 80,9                                     |
| <b>Ulardan:</b>      |                                                                                                                        |                |                |                |                |                |                                          |
| 1.1.1                | Iqtisodiyot tarmoqlarida (yirik biznes) bandlar                                                                        | 4235.1         | 3381.7         | 2536.7         | 2431.6         | 1773,0         | 41,9                                     |
| 1.1.2                | Kichik korxonalar, mikrofirmalar va fermer xo'jaliklarida bandlar                                                      | 779.0          | 1480.3         | 2209.7         | 2229.5         | 1578,6         | 202,6                                    |
| 1.1.3                | Yuridik shaxs tashkil etmagan holda patent (litsenziya)ga ega bo'lgan tadbirkorlar                                     | 268.6          | 254.7          | 672.8          | 871.1          | 657,7          | 244,9                                    |
| 1.1.4                | Dehqon xo'jaliklarida bandlar                                                                                          | 1217.9         | 1348.3         | 1630.2         | 1869.2         | 1384,1         | 113,6                                    |
| 1.1.5                | Boshqa tashkilot va muassasalarda bandlar                                                                              | 568.6          | 213.8          | 225.8          | 447.8          | 326,0          | 57,3                                     |
| 1.2                  | Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar                                                                             | 2808.2         | 3372.1         | 4064.0         | 4207.8         | 5666,5         | 201,8                                    |
| <b>Ulardan:</b>      |                                                                                                                        |                |                |                |                |                |                                          |
| 1.2.1                | Vaqtinchalik, bir martalik va mavsumiy ishlar                                                                          | 783.8          | 1487.5         | 1467.6         | 1656.8         | 1488,8         | 189,9                                    |
| 1.2.2                | Oilaning yordamlashuvchi a'zolari va tadbirkorlarga mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmagan holda yordamlashuvchilar | 948.0          | 697.6          | 1198.6         | 1081.3         | 716,6          | 75,6                                     |
| 1.2.3                | Ro'yxatdan o'tmagan holda va ruxsatsiz ishlovchi tadbirkorlar                                                          | 1076.4         | 1187.0         | 1397.8         | 1469.7         | 1224,1         | 113,7                                    |
| 1.3                  | Respublikadan tashqariga ishlash uchun chiqib ketganlar                                                                | 124.1          | 266.1          | 289.2          | 1001.3         | 1840,3         | 1482,9                                   |
| 2                    | Ishga joylashtirishga muhtoj shaxslar                                                                                  | 393.2          | 320.2          | 628.2          | 709.4          | 1558,4         | 396,3                                    |
| II                   | <b>Iqtisodiy nafaol aholi</b>                                                                                          | <b>2739.6</b>  | <b>3789.0</b>  | <b>4469.4</b>  | <b>4509.4</b>  | <b>4478,6</b>  | <b>159,2</b>                             |
| III                  | <b>Jami mehnat resurslari</b>                                                                                          | <b>13134.4</b> | <b>14426.2</b> | <b>16726.0</b> | <b>18277.1</b> | <b>19517,5</b> | <b>145,7</b>                             |

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda mehnat resurslari 2002–2022-yillarda 45,7% ga ko'paydi va 2022-yilda 19517,5 ming kishini tashkil etdi. Ularning 77,3% ini iqtisodiy faol aholi (2002-yilda 79,1% ni) tashkil etgan. Iqtisodiy faol aholi soni tahlil etilayotgan yillarda 42,3% ga oshgan. Bandlar soni esa 32,4% ga, ishga joylash-tirishga muhtoj aholi soni 3-martaga oshgan.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari.



Iqtisodiy faol aholi ulushining bu yillarda pasayib borishi yirik biznesda bandlarning 58,1% ga, boshqa tashkilot va muassasalarda bandlarning 42,7% ga kamayishi hisobiga yuz bergan. Rasmiy sektorda bandlar soni, asosan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi bandlikning 202,6% ga, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yurituvchi yakka tadbirkorlarning 244,9% ga ko'payishi hisobiga 201,8% ga oshgan.

Norasmiy sektordagi bandlarning o'sish sur'atlari nisbatan yuqori (201,8%) bo'lgan. Bunda vaqtinchalik, bir martalik va mavsumiy ishlarga jalb qilinganlar (189,9%), ro'yxatdan o'tmagan holda, tegishli ruxsatnomalarsiz faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar (113,7%) sonining ko'payishi, oilaning yordamlashuvchi fuqarolari (24,4%) sonining kamayishi muhim ta'sir ko'rsatgan.

Iqtisodiy faol aholi tarkibida chetga ishlashga ketayotganlar ulushi 2002-yildagi 1,2% dan 2022-yildagi 13,9% ga qadar oshgan. Ularning mutloq soni bu yillarda 1482,9% ga ko'payib, 1840,3 ming kishiga yetdi. Iqtisodiy nafaol aholi soni tegishli yillarda 20,9% dan 22,7% gacha sur'atlarda ko'payib bormoqda. Ushbu holat mehnat resurslaridan samarali foydalanishda ma'lum muammolar mavjudligini ko'rsatadi hamda aholining iqtisodiy faolligi darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Iqtisodiy nafaol aholi sonining ko'payib borishini mehnat bozoriga kirib kelayotgan ishchi kuchi sifatini oshirishda muhim omil bo'lgan talaba-yoshlar qatlamining tobora ortib borayotgani holati bilan ham izohlash mumkin.

O'zbekistondagi rasmiy mehnat bozorining muhim xususiyatlaridan biri unda yoshlarning salmog'ini kattaligidadir. Shuningdek, mehnat bozorining kattagina qismini asosan, kasbiy ma'lumoti yo'q, yoki ma'lumoti yuqori bo'lmagan kishilar tashkil etadi. Bu holat O'zbekistonda bandlik tizimida professional-kasbiy malakaga ega bo'lgan ishchi-xodimlarga nisbatan ehtiyojni to'la qondirilmaganligini ham anglatadi. Ishlab chiqarish jarayonlarini malakali ishchilar bilan ta'minlanganlik darajasi 90-yillardagi keyingi holatga ko'ra 80 foiz atrofida edi<sup>54</sup>.

Mustaqil taraqqiyot yo'lida amalga oshirilgan iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar respublikaning o'tish davridagi o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy muammolar bilan bog'liq bo'lgan migratsion jarayonlar tufayli bu ko'rsatkichda nisbatan pasayish holatlari ham sezildi.

Demak, mehnat bozorida ishchi kuchining sifat ko'rsatkichi va intellektual salohiyatini oshirib borish hayotiy dolzarb vazifadir.

Zero, mehnat bozorida amal qiladigan iqtisodiy qonunlar mehnatdan foydalanishni uzliksiz yaxshilash, ish bilan bandlik, ishsizlik kabi doimiy iqtisodiy voqeelikning tabiiy jihatdan ta'minlaydi. Shuning uchun ham bandlik muammolarini o'rganishda mehnat bozorining amal qilish jarayonlari, u yerdagi talab va taklifning o'zaro muvofiq kelishligi muammolariga alohida e'tibor berishimiz lozim. Mehnat bozori ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni tartibga soladi, makroiqtisodiy darajada ishchi kuchini taqsimlaydi, ishchi kuchining kasbiy va hududiy jihatidan harakatlanishini ta'minlaydi. Ishsizlik muammosi mehnat bozorining eng muhim masalasi bo'lib, ishchi kuchi taklifining talabdan ortiqchaligi natijasida yuzaga keladi. Ana shunday nomutanosibliklarni chuqur o'rganish asosida hal qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun esa, mehnat bozorida faol siyosat olib borish borasidagi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish, jamoat ishlari tarmog'ini kengaytirish, ishsizlarni o'qitish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirib borish va yangi ish joylarini barpo etish zarur. Yoshlar o'rtasida ishsizlikni kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq eta borish kerak.

Bugungi kunda respublikamiz barcha viloyatlari, hatto ba'zi tumanlar markazlarida "mardikor bozorlari" paydo bo'lgan. Keyingi paytlarda bunday bozorlarning paydo bo'lish sabablari ularni tartibga solish haqida turli fikrlar bildirilmoqda. "Kimdir mardikor bozorlarning barchasini ro'yxatga olib rasmiylashtirish kerak desa, yana kimdir umuman taqiqlash kerak, – degan fikrlarni bildirmoqda. Boshqa birovlar esa, agar ishsiz yurganlar ish bilan ta'minlansa, bunday bozorlar o'z-o'zidan tugab ketadi, – degan fikrni ilgari suradilar. Holbuki, ishsizlik barcha rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, unga tabiiy jarayon sifatida qarash kerak. Rivojlangan Yevropa mamlakatlaridan biri Germaniyada ham 5 millionga yaqin ishsiz bor. AQSH aholisining 12,5 foizi aynan ishsizlik tufayli qashshoq yashamoqda<sup>65</sup>. Demak, ishsizlikni tabiiy natijasi sifatida yuzaga kelayotgan "mardikor bozori" masalasiga yuzaki yondashib bo'lmaydi balki, ishchi kuchiga talab va taklifni me'yoriy asoslari ishchi kuchi salohiyati inson omili nuqtayi-nazaridan ilmiy asoslangan tahlillar asosida xulosalar berish zarur.

"Mardikor bozorining mohiyati nimada, uning qanday ijobiy va salbiy tomonlari bor?" – degan masala yuzasidan ham mulohaza yuritish zaruriyati yuzaga keladi. "Mardikor bozori" jamiyatda kishilarning bir taifasi tovarga is'temolchi bo'lib chiqadigan huquqiy munosabatlarga asoslanmagan "stixiyali bozor" hisoblanadi. Bu bozorning ijobiy tomonlari ham bor bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- tovar va iste'molchi huquqlari teng;
- rasmiy talablardan ikki tomon ham yiroq;
- talab va taklif qonuni iqtisodiy qonun sifatida hukm suradi;
- ko'p hollarda o'zaro insonparvarlik munosabatlari yuzaga kelib, ishchi kuchi takror ishlab chiqariladi;

5 Satvolldiev A.A. "Управление занятностью населения в трудаизбыточных регионах" Санкт-Петербург, 1993. – С. 10.

6 Shukurov B. "Bandlik muammosi: ahvol, qarashlar, takliflar". "O'zbekiton ovozi" gazetasi 2006-yil 10-may, 56-son, – B. 27 – 548.



- pul muomilasi qonuni amal qiladi;
- kasb-hunar qadrlanadi;
- yoshi va ijtimoiy kelib chiqishi surushtirilmaydi, aql-zakovat baholanadi va boshqalar.  
Shuningdek, uning salbiy taraflari, jamiyatning harakatdagi huquqiy qonun va me'yoriy dalolatnomalari qamrab olinishi kuzatilmaligi, mehnatni muhofaza qilish kabilar bilan izohlash mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqa mehnat bozori faoliyati amaliyotida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifdagi o'zgarishlar bir vaqtda yuz beradi. Shu sababli bunday murakkab vaziyatlarni baholab, bu o'zgarishlarning yo'nalishlari va darajasini aniqlash zarur:

ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning bir xil miqdorga o'zgarishi mehnat bozori konyunkturasi; bandlik darajasi yoki ish haqi darajasining o'zgarishini o'ziga jalb qiladi; bandlik darajasining bir vaqtda o'sishi sharoitida ish haqi stavkasining oshishi ishchi kuchi taklifi o'zgarishiga qaraganda, talab katta miqdorda oshgan vaziyatlardagina mumkin bo'ladi; agar mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning bir vaqtda o'zgarishi o'rinli bo'lsa, ish haqi va bandlik darajalarining haqiqiy dinamikasini aniqlash uchun yuz berayotgan o'zgarishlarning har tomonlama mantiqiy tahlilini o'tkazish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Никифоров А.А. Рынок труда: занятость и безработица. Москва «Медународное отношения», 1991. – С.9.
2. Сатволдиев А.А. “Управление занятостью населения в трудаизбыточных регионах” Санкт-Петербург, 1993. – С. 10.
3. Муминова М. “Рынок труда в эканомике переходного периода и совершенствование механизма его функционирования”. Автореферат диссерт. к.э.н. Тошкент 1999 год. – стр. 16.
4. Shukurov B. “Bandlik muammosi: ahvol, qarashlar, takliflar”. “O'zbekiton ovozi” gazetasi 2006 yil 10-may, 56-son, – B. 27 – 548.
5. B Sultanov, N Abdurazakova, O Shermatov, O Fayziev, A Jumanov, N.Dekhanova. The economic feasibility of cultivating intensive orchards. **E3S Web of Conferences** 284, 03006 (2021) TPACEE-2021 (<https://doi.org/10.1051/e3sconf/202128403006>).
6. I Yunusov, U Sangirova, U Ahmedov, O Fayziev, U Kholiyorov. Clustering of agriculture in the Republic of Uzbekistan. April 2023, E3S Web of Conferences 381, 02002 (2023) AQUACULTURE 2022.
7. O Fayziyev, D Aminboyeva. Qishloq xo'jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences (May 2023). – Tashkent, 2023. – Volume 3. – Issue 5. – P. 164-167 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961) (ISSN 2181-2853).
8. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

